

SEDATIV VOSITALAR

Xurramova Dilnoza Elyor qizi

Toshkent davlat Stomatologiya instituti

Davolash ishi fakulteti talabasi

Kafedra: Mikrobiologiya farmakologiya va virusologiya

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Nigora Yakubova

Annotatsiya: Ushbu maqolada sedativ vositalar ta'siri va ta'sir mexanizmi, sedativ vositalar turlari hamda vositalarining ahamiyati qo'llanilishi

Kalit so'zlar: Sedativ vositalar , natriy kaliy bromidlar, giyohli o'simliklar, valeriana o'simligi damlamasi nastoykasi , korvalol , arslonquyruq

Sedativ moddalar miya po'stlog'ida tormozlanish jarayonlarini oshirib, ulami jamlab chuqurlashtiradi, markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, nerv sistemasi qo'zg'aluvchanligi oshganda sezilarli bo'ladi, tormozlovchi va qo'zg'aluvchanlik jarayonlari muvozanati to'g'rilanadi. Lekin, uyqu chaqirishi asosiy ta'siri emas. Sedativ dorilar – asosan giyohli o'simliklardan tayyorlangan engil tinchlantiruvchi xususiyatga ega dorilar. Trankvilizatorlarga qaraganda sedativ (lot. Sedatio – tinchlantirmoq) dorilarning fobiya va xavotirga ta'siri ancha past. Bu guruhga mansub dorilar MNS qo'zg'aluvchanligi bilan bog'liq nevroitik buzilishlarni bartaraf etadi, yurak-qon tomir faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, spazmolitik xususiyatga ham ega. Ular trankvilizatorlarga o'xshab kuchli uyquchanlik chaqirmaydi, muvozanat va koordinatsiyaga salbiy ta'sir qilmaydi, muskullar tonusini pasaytirmaydi, o'rganib qolish ta'siriga ega emas. Lekin kundalik dozasi oshib ketsa, uyquchanlik kuzatiladi va bemorni birmuncha bo'shashtiradi. Sedativ dorilarning organizmga nojo'ya ta'siri kamligi tufayli ularni ish faoliyatidan ajralmagan holda qabul qilish mumkin, mashina haydashga ham cheklovlar qo'yilmaydi. Sedativ dorilar analgetik va boshqa psixotrop dorilar ta'sirini kuchaytiradi. Sedativ dorilarni 1-2 oydan ortiq qabul qilish tavsiya etilmaydi.

Sedativ dorilar 2 guruhga ajratiladi: 1) **bromidlar**; 2) **giyohli** o'simliklardan tayyorlangan dorivor vositalar.

Bromidlar – brom asosida kimyoviy usul bilan tayyorlangan dorilar.

•**Natriy bromid.** Nevrasteniya, kardionevroz, nevroitik tiklar va arterial gipertoniyaning dastlabki bosqichlarida keng qo'llaniladi. Natriy bromidni bir yoshdan boshlab berish mumkin. Bolalarga 1 choy qoshiqdan, kattalarga 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal yoki 2 tabletkadan 3 mahal tavsiya etiladi. Ishlab chiqarilishi: 0,5 g li tabletkada, kukun va

3 % li 100 ml flakon. Dorini uzoq muddat qabul qilsa, “bromizm” rivojlanadi. Uning belgilari: burun bitishi, konyunktivit, yo‘tal, teriga toshma toshishi va umumiy holsizlik. Bunday paytlarda 0,9 % li 1000 ml natriy xlorid venadan tomchilatib yuboriladi, kam-kamdan ko‘p miqdorda suv ichiladi.

• **Kaliy bromid.** Ko‘rsatmalari, ta’sir qilishi va tavsiya etiladigan dozasi xuddi natriy bromid kabi. Ishlab chiqarilishi 0,5 g li kukun va tabletkalar.

• **Bromkamfora.** Ko‘rsatmalari, ta’sir qilishi va tavsiya etiladigan dozasi xuddi boshqa bromidlar kabi. Ishlab chiqarilishi: 0,25 g li tabletkalar.

Giyohli o‘simliklardan tayyorlangan sedativ dorilar

• **Valeriana moddalaridan** o‘simlikning damlamasi, nastoykasi, ekstrakti qo‘llanadi, ular valeriana ildizi, o‘q ildizidan tayyorlanadi, bu moddalar spazmolitik ta’sir etuvchi borneol va izovalerian kislotaning murakkab efir moyidan iborat. Valeriana moddalari ayniqsa, yurak nevrozida samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kombinirlangan suyuqliklar – valosedan, korvalol, valokordinlartarkibi asosan valerianadan iborat.

• **Korvalol** sedativ va spazmolitik ta’siridan tashqari, yurak urib ketishini pasaytirish va qon bosimni biroz tushirish xususiyatiga ham ega. Kuchli asabiylashish, qo‘rquv, vahima sababli yuzaga kelgan yurak faoliyati buzilishlarida (masalan, taxikardiya, koronarospazm) “tez yordam” maqsadida keng qo‘llaniladi va tez tinchlantiradi. Biroq uxlatuvchi ta’siri deyarli yo‘q. Nevrotik qo‘zg‘alishlar sababli ko‘tarilgan AQB ni tushiradi.

• **Arslonquyruq** o‘tidan tayyorlangan damlama va nastoykalar markaziy nerv sistemasini tinchlantiradi, ta’siri valeriana moddalariga o‘xshab ketadi. Ularni tarkibida efir moylari, alkaloidlar, saponinlar va burushturuvchi moddalar tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://asab.cc/uz/jenciklopediya/2284-sedativdorilar.html>
2. S.S.Azizova .Farmakologiya.Toshkent-2006
3. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/sedativ-yanitinchlantiruvchi-tasirga-ega-bolgan-dorivorgiyohlardan-yana-biri-melissa>